

## SHAHSNI TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYANING O‘RNI (AQLIY TARBIYA)

*Jonibekova Fotima G‘ulomjon qizi*

*NamDU*

[jonibekovafotima7@gmail.com](mailto:jonibekovafotima7@gmail.com)

*Annaotatsiya: Maqolada shahsni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning o‘rni (aqliy tarbiya) to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.*

*Kalit so‘zlar: Shahsni tarbiyalash, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, tarbiya metodi.*

### **KIRISH:**

Jismoniy tarbiya bilan aqliy tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, “Kishining aqliy rivojlanishi bilan jismoniy rivojlanishi o‘rtasida,— deb yozadi P.F. Lesgaft,— mustahkam aloqa mavjud. Aqliy o‘shish va rivojlanish tegishlicha jismoniy kamolotni talab etadi» va aksincha: bir tomonlama jismoniy kamol topish faqat aqlan etarlicha tekshirshagan va yo‘lga solinmagan faoliyatning namoyon bo‘lishiga olib keladi. Sport psixologiyasi jismoniy mashqlar bilan, ayniqsa sport bilan shug‘ullanish aqliy faoliyat bilan bog‘liq holda olib borilishini tasdiqlaydi. Jismoniy tarbiya bilan aqliy tarbiyaning bir-biriga bog‘liqligi mohiyatini umumiy olganda quyidagi fikrlar bilan ta‘riflash mumkin.

Mustahkam sog‘liq, harakat malakalari, jismoniy kamolotni ta‘minlaydigan jismoniy tarbiya protsessi sovet. kishilarining aqliy ishlash va uzoq vaqtgacha ijod qilish qobiliyatining saqlanishi uchun manba bo‘lib hisoblanadi. Uz navbatida shug‘ullanuvchilar tafakkurini rivojlanishiga qaratilgan aqliy tarbiya ularning harakat tajribalarini o‘ylab, ijodiy ravishda egallab olishlarini ta‘minlaydi, jismoniy qobiliyatlarini mehnat va sport manfaatlari nuqtai nazaridan takomillashtirishga yordam beradi.

Aqliy tarbiyaning mazmuni. Aqliy tarbiyaning mazmunida ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tomon ta‘limiy va tarbiyaviy tomonlar bor.

Aqliy tarbiyaning ta‘limiy tomoni shug‘ullanuvchilari (masalan, o‘rganilayotgan harakatlarning asosiy mexanizmlari haqida, harakat madakalarining tarkib topish va jismoniy fazilatlarini tarbiyalash qonuniyatlari to‘g‘risida, taplangan sport turi texnikasining xususiyatlari haqida, jismoniy mashqlarning kishi organizmiga umumiy va mahalliy (ma‘lum bir joyga) ta‘siri haqida, jismoniy nagruzkalar, mashqlarni me‘yorlash, gigibnik talablar va hokazolar to‘g‘risida) maxsus bilimlar bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Psixologlar borliq hodisalari to‘g‘risidagi bilim (tajriba) aqlni rivojlantirishning dastlabki zarur shartidir, deydilar. Bilimsiz, garchi eng elementar bo‘lsa ham, aqliy faoliyat bo‘lishi mumkin emas.



Binobarin, harakat faoliyatidagi maxsus bilimlarni o'zlashtirib olish va uni kun sayin kengaytirib borish, ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish malakasini tarbiyalash jismoniy tarbiya protsessidagi aqliy faoliyatning asosiy mazmunini tashkil etadi, biroq, shug'ullanuvchilarning aqliy aktivligini rivojlantirishda maxsus bilimlarning ahamiyati qanchalik ko'p bo'lmasin, bu bilimlarning hajmi va saviyasining o'ziga aqliy faoliyatning samaradorligini ta'minlay olmasligini e'tibordai chetda qoldirmaslik kerak, Hosil qilingan bilimlarni tartibga solish xamda bu bilimlarni va harakat tajribalarini; xayotdagi, mehnatdagi, sport praktikasidagi xilma-xil sharoitlarda qo'llay bilish zarur.

Hozirgi zamon psixologiyasida tafakkurning produktiv, ya'ni ijodiy turi va reproduktiv, ya'ni takror ishlab chiqaruvchi turi bor, deb hisoblanadi.

Jismoniy tarbiyalash praktikasida harakat faoliyatlarini o'rgatish, odatda, shug'ullanuvchilarning takror ishlab chiqaruvchi bilish aktivligi asosida amalga oshiriladi. Bunday bilish aktivligi shundan iboratki, shug'ullanuvchilar jismoniy tarbiya mutaxassisi rahbarligidagi o'quv protsessi; davomida u ma'lum qiladigan maxsus bilimlarni izchillik bilan o'zlashtirib boradilar, harakat malakalarini egallaydilar, jismoniy qobshshyatlarini takomillashtiradilar. Takror-ishlab chiqaruvchi bilish aktivligining zarur va foydali tomonlari bilan birga salbiy tendentsiyasi ham bor. Bu shunga; olib keladiki, shug'ullanuvchilar faqat tayyorlab berilgan-xarakat tajribalarinigina o'zlashtirishga odatlanib qoladilar. Natijada ularning o'z fikrlari inertlashib, bilish-qobiliyatlarini rivojlanishini chegaralab qo'yadi. Harakat amallarini o'rgatishda va trenirovkalarda ko'proq produktiv, ya'ni ijodiy tafakkurdan foydalanish kerak.

Shundagina shug'ullanuvchilar xilma-xil xarakat vazifalarini izlay oladigan va topa oladigan bo'ladilar, o'z oldilariga shunday vazifalar qo'yadigan va ularni hal qila oladigan bo'ladilar. Bu sport trenirovkasi mohiyatini va o'ziga xosligini sportchining shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda chuqurroq tushunish, taktik fikrlashning naqadar boy ekanini ko'rsatish imkonini beradi. Ko'rinib turibdiki, shug'ullanuvchilarning ijodiy tafakkur qilishi ularga ta'lim berish saviyasini yuqoriroq darajaga ko'taradi. Psixologlarning fikricha, produktiv ya'ni ijodiy tafakkurni ta'lim berish protsessida tarbiyalash mumkin va zarur.

Jismoniy tarbiya protsessidagi aqliy faoliyatning tarbiyaviy tomoni shug'ullanuvchilarda bilish qobiliyatini o'stirish bilan bir qatorda aql-idrokni ham tegishli darajada o'stirishdan iboratdir. Uqitishning dastlabki bosqichlarida fikrni o'rganilayotgan harakat amallariga qaratish, idroklilik, sinchkovlik, aqlning tetikligi va boshqa fazilatlar rivojlantiriladi. Uqitishning keyingi bosqichlarida esa, fikrlashning sport kurashida, asosan taktik harakatlarda nihoyatda zarur bo'lgan izchilligi, tezligi, dinamikligi va boshqa aqliy fazilatlar rivojlanib boradi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari. Jismoshsh tarbiya protsessidagi aqliy faoliyatning mazmuniga muvofiq ravishda aqliy tarbiyaning uchta asosiy vazifasini ko'rsatish mumkin:

1. Shug'ullanuvchilarni jismoniy tarbiya sohasidagi maxsus bilimlar bilan boyitib borish.
2. Muhokama yurita bilish malakalarini, o'rganilayotgan harakat tajribasini tahlil etish, umumlashtirish, tanqidiy jihatdan baholash qobiliyatini tarbiyalash.
3. Harakat faoliyatida ijodiy, aqliy aktivlik ko'rsatish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda o'zining jismoniy qobiliyatlarini mehnat va sport manfaatlariga muvofiq ravishda ratsional ishlatish.

Aqliy tarbiya vositalari. Jismoniy tarbiya sohasidagi maxsus bilimlar jismoniy tarbiya protsessidagi aqliy tarbiyaning asosiy vositalari deb hisoblanmog'i kerak. Uqituvchi bularga tayangan holda shug'ullanuvchilarni harakat amallariga o'rgatishda ularning tafakkurini aktivlashtiradi.

Maxsus bilimlarning mazmuni va hajmi shug'ullanuvchilarning yoshi va tayyor ekanlik darajasiga muvofiq ravishda tuzilgan jismoniy tarbiya programma talablari bilan belgilanadi. Bunda harakat malakalari va shu munosabat bilan bayon qilinayotgan maxsus bilimlar doirasi qancha keng



bo'lsa, shug'ullanuvchilarning aqliy aktivligini rivojlantirish adniyatlari ham shunchalik ko'p bo'ladi. Tan olingan olimlardan va harakat tajribalaridan foydalana bilish o'quvchilarni harakat vazifalarini bajarishning samarali yo'llarini qidirib topishga va ularni hal etishga, ya'ni harakat faoliyatida ijodiylik ko'rsatishga safarbar etadi. Juda yaxshi rivojlangan jismoniy qobiliyatgina emas, balki har tomonlama chuqur va maxsus yilim olgan yuqori malakali sportchilarning ijodiylik namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu esa ularning sport faoliyatida aktiv aql-idrok ko'rsatishlariga sabab bo'ladi.

Jismoniy mashqlarning o'zi ham, agar ularni o'zlashtirib olishda etarlicha idrok qilinsa, aqliy tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Jismoniy mashqlar (mazmuni, shakli, shug'ullanuvchilarning o'zaro munosabati va h.okazolar) murakkablashib borgan sari aqliy aktivlik ham oshib boradi.

Aqliy tarbiya metodlari. Jismoniy tarbiya protsessidagi fikrlash protsessi so'zlash formasida bo'ladi hamda mashg'ulotda aniqlangan bog'lanishlarni og'zaki ifodalash bilan tugal-lanadi. Bunga, avvalo, o'qitishning o'ziga xos metodlari (tushuntirish, ko'rsatish, mashq va boshqalar) imkon beradi, chunki aqliy faoliyatpi aktsvlashtirish o'qitish metodlarining mohiyatini tashkil etadi.

Fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning eng samarali yo'li muhokama yuritishdir, busiz o'quvchilarning tafakkuri namoyon bo'lmaydi va rivojlanmaydi.

Jismoniy tarbiya protsessida muhokama yuritish shug'ullaiuvchilarni aniq fikrlashga, umumiy qoidalar, xaqiqatlar ishlab chiqishga, xamda shularga muvofiq harakat, qilishga va jismoniy tarbiya sohasida muayyan tushunchalarni shakllantirishga o'rgatadi. Uquvchi o'rganilayotgan harakat amallari haqida qanchalik ko'p fikr yuritsa, u shunchalik kam taqlid qiladi. Muhrkama yuritish odati xatti-harakatlarning mustaqil bo'lishiga, ijodiy aktivlik va irodaviy fazilatlar namoyon bo'lishiga imkon beradi. "Muhokama yuritmay turib, deb yozgan edi P. F. Lesgaft, abstrakt tafakkur bo'lishi mumkin emas, abstrakt tafakkursiz esa kishining irodaviy xislatlari namoyon bo'lmaydi". Kitoblar yordamida ham bilim olish mumkin, lekin bu bilimlarni faqat muhokama yuritish yordamidagina hazm qilish, tasodifiylarini chiqarib tashlash, asosiy bilimlarni o'zlashtirib olish mumkin, degan edi P. F. Lesgaft.

Jismoniy tarbiya protsessida muhokama yuritish ko'nikmasi asta-sekinlik bilan ortib boradi. Harakat amallariga o'rgatishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilardan so'rash, shuningdek, ularning mustaqil ravishda kuzatishlari va taqqoslashlari orqali ularda muhokama yuritish malakasi hosil qilinadi.

Shug'ullanuvchilarda umumiy rivojlanish ortgani sari, ulardagi harakat tajribalari va maxsus bilimlar boyib borgani sari, mantiqiy fikrlash rivojlangani sari tahlil qilish, umumlashtirish, tanqidiy baho berish va boshqa metodlar hamda aqliy tarbiya usullaridan foydalaniladi. Ma'naviyatni shakllantirishda, bevosita ta'sir qiladigan yana bir muximi xayotiy omil bu ta'lim tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Talimni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona qarash sharqona xayot falsafasidir. Ma'naviyatni shakllantirishda bevosita ta'sir qiladigan yana bir muxim xayotiy omil bu ta'lim tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ajralib bo'lmaydi bu sharqona qarash sharqona xayot falsafasidir.

Bu xaqida fikr yuritganda men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo mamot, yo najot, yo falokat yo xalokat, yo saodat majlisidir" degan chuqur manoliy so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tganasr boshida millatimiz uchun qanchalar muxim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, xozirgi vaqtda ham biz shunchalik balki undan xam ko'ra muxim va dolzarb axamiyat kasb etadi. Nega deganda bizga sobiq tizimning eng nomaqul tomoni shundan iborat ediki unda o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'yilmas edi.

Ta'lim tarbiya tizimidagi isloxotlar boshlangan daslabki yillarda men jaxon tarbiyasi va xayotda o'zini ko'p bor oqlangan xaqiqatdan kelib chiqib agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyotli ravishda amalga oshira olsak tez orada xayotimizda ijobiy ma'nodagi "portlash effekti"da yani yangi ta'lim medelining kuchli samaralisiga erishamiz degan fikrni bildirgan edim.



Tarbiya metodlari xaqida tushuncha maqsad, mazmuni shakl metodi va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayoning moxiyati ochib beradi.

Biroq tarbiya moxiyatini yoritishda o'ziga xos axamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi mutloqo yangi metodlar yaratishda birona tarbiyalanuvchining kuchi yetmaydi.

Metodlarni takomillashtirishda muammosi doimo mavjud xar bir tarbiyachi o'zining insoniyatiga ko'ra uni xol axvoli tarbiya jarayonining aniq shart – sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodlarini boyitadi. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi. tarbiya jarayonida ta'lim yo'lini yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baxolash mumkin. Metod samaradorligini uqo'llaniladigan yo'ldan sharoit nuqtai nazarda baxolash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadiga muvofiq tanlash bir qator amallarga bog'liq.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarini to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga bo'lishi zarur tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga ko'ra ijtimoiy talablar moxiyatidan iboratlik kerakki aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin shuning uchun metodlarni umuman mazmuni bilan emas balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muximdir. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga oilsh maqsadga muvofiqdir.

Yosh xususiyatlarini muayyan bir yosh davriga mos bo'lgan anatatik fizologik va psixologik va psixologik xususiyatlaridir.

Aytaylik ma'sulyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim o'rta va o'rta maxsus kasb xunar ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarga ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlari qo'llaniladi.

Bola o'qishni tarbiya olishni istaydi, katta bo'lib jamiyat xayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagogik uni qay darajada qanday munosabatlar sharoitida qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilish kerak.

Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtiroki ekanligini ham unutmashlik kerak. O'qituvchi do'st, murabbiy yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki dunyolarini namoyon qiladilar. Yuqorida aytganimizdek tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon tarbiyachilar bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyachilar bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir ammo tarbilanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmalar tajriba va bilimni egallay olmaydilar.

Demak tarbiya metodi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorilkdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usulidir. Shaxsni shakllantirish maqsadida bolani ongi his-tuyg'ulari irodasi xulq atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya metodlarini tarbiya usullari deb ham ishlatiladi.

O'quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalanadi.

Sinf yig'ilishi, ertalabki saflanish kulub ishlari va boshqalar

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usulari uslub vositalari va shakllaridir. Moxirona foydalanishga bog'liq.

Tarbiyachilar bola shaxsiyatiga ta'sir etishning maqbul usulini tanlab olishlari unimng shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya metodlari xar bir bolaga bolalar jamoasiga aloxida munosabatda bo'lishini taqozo etadi.

Shunday qilib bitta o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron bir tarbiyaviy masalani xal qilish uchun o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini taryalanganlik darajalarini pedagogik vaziyat xarakterini xisobga olgan xolda ta'sir etishning turli tuman metod va uslub va shakllari deyiladi.



Tarbiyaning metodlari vositalari asrlar davomida o'sib shaklanib boradi, o'zini oqlagan urf odatlar an'anaga aylanadi.

Xalq pedagogikasi chinakam o'zbekona axloq odob va tarbiyalaning barcha qisimlarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalardan nixoyatda rang barang bo'lib ko'p jixatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunliq qiladi, chunki bu metodlar ilmiy metodlarning pedagogikaning shakllanishida xam o'z ta'sirini o'tkazadi.

Xalq pedagogikasida qo'lalnilgan juda xilma-xil tarbiya metodlari quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1-Tushuntirish o'rganish, odatlantirish mashq qildirish.

2-Na'muna (maslaxat berish uzur so'rash yaxshiliklar xaqida so'zlash, o'rnak bo'lish.)

3-Nasixat qilish o'git (Undan ko'rish, iltimos qilish, tilak istak bildirish ma'qullash, tashakkur bildirish duo qilish, oq tilash va boshqalar).

4-Qoralash va jazo (Tanlash majbur qilish, ayblash, uyaltirish, va boshqalar.)

Xalq pedagogikasining nodir na'munalari tarbiya metodlariva tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan mexmon kutish, mexmonga borish, turli mexnat jarayonlari xasharlar turli guruxlar sayillar, turli nishonlashlar, musobaqalarturli marosim va boshqalar uziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan. Inson kalbiga bugun ekilgan yaxshi urug oradan un yil utgach unub usadi buni ilmiy asoslab oldindan kura bilish kerak.

Tarbiya metodlarini o'rganish tahlil qilish, bu metodlardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallash uchun ularga shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olanish, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, faoliyat, jaroyonida, xulq va tarbiyani shakllantirish metodlari o'z-o'zini tarbiyalash metodlari hamda rag'batlantirish usullari baholash metodlari.

Bolalar narsa va xodisalarga tushunmaganlariganamuna metodidan foydalaniladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati oqli orqali narsa va hodisalarning mohiyatini anglyadigan bo'lishadi bordiyu unda, ham bolalar tushunmasa yoki tushunishni istamosa unda qoralash va baholash metodlariga foydalanishga to'g'ri keladi. Lekin bu so'ngi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan.

Xozirgi zamon ilmiy pedagogikasi shuni takidlaydiki baholash so'ngi ham samara beradigan chora xalq pedagogikasida qo'llaniladigan metodlaridan yana biri mashqlantirish yani odatlantirish.

**Mashq qildirish metodi.** Tarbiya metodlarining kilasifikatsiyasi quydagicha ishonchni shakllantiruvchi O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga yani o'z ustida ongli batartib ishlashga ixtiyoriy paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb xisoblash mumkin.

Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali xisoblanadi. O'z-o'zini idora qilishlari turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtrok etishlarini taminlash ularning ijtimoiy mavqeylarini oshirish maqsadida qo'llanuvchi usuldir.

O'quvchilarning o'qish-tarbiya va dam olishida o'z-o'zini tarbiyalash tashabuskorlik va mustaqillika undaydi.

Mashq va o'rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muofiq va tomonlama puxta tashkil qilish ularni axloq meyorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir.

Odatlar bolalikda tarkib topadiva shaxs rivojlanishining kegingi bosqichlarida mustaxkamlanib boradi.

O'qtuvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganini kuzatib borishlari kerak.

Mashq muayyan xatti-xarakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi.



Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijobiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma odat yangi bilimlar xosil qilinadi. O'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi. Ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi xayotiy tarbiyasi ortadi.

Rag'batlantirish va yo'nalish metodlari o'qtuvchi bolalarning xar biri o'sib ulg'ayib, borayotganidan xursand bo'layotganini sezish kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'radi.

Jamoa va o'qtuvchilar e'tiborini qozonadi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalanish lozim.

Yo'nalish bu tarbiyaluvchining xatti-xarakati va faoliyatiga salbiy baxo berishdir. Jazo ham o'quvchining va butun sinf m'nfaati uchun qo'llaniladigan oxirgi tarbiya metodi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metod bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash etiqodini ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongli xislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarning mohiyati shunchaki ular orqali jaiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotganini yetkaziladi.

Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish xayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar qo'llaniladi. O'quvchilarda siyosiy ongilylik va ijtimoiy faollik yani davlatni ichki va xalqaro siyosiyatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Faoliyat jarayonida xulq tarbiyalarini shakllantirish metodlari bola rivojlanishining, uning o'zligini anglashining asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtaiy nazaridan yondashish qoidasi maktab xayotining hamma jabxalarida ta'lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Tarbiya metodi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining hamkorlikdagi faoliyati va o'zaro ta'sir ko'rsatish usulidir. Shaxsni shakllantirish maqsadida, bolaning ongli, xis tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvor va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlatiladi.

Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari xalq pedagogikasi chinakam o'zbekona axloq odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirilgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi. Bu metod, vositalar nixoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jixatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki. bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'siri o'tkazadi.

Ijtimoiy ongi shakllantiruvchi metod bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodini ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, xislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish metodlari kiradi. Bu guruh metodlarining mohiyati shunchaki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar g'oyalarni etkazadi.

Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish xayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy ong shakllantiruvchi metodlar qo'llaniladi.

O'quvchilarda siyosiy ongilylik va ijtimoiy faollik yani davlatni ichki va xalqaro siyosatni tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Faoliyat jarayonida xulq tajribalarini shakllantirish metodlarini bola rivojlanishining, uning o'zligini anglashga asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshish qanday maktab maktab hayotining hamma jabxalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarida singib ketadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma'sul muharrir: A.Jalolov. – T: «Yozuvchi», 2001. – 64b.



2. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.
3. Aliqulov H., Omonboeva R., Jomiy va Davoniy ta'lim - tarbiya haqida. – Toshkent: O'zbekiston, 1981, - 60 b.
4. Mirzamahmudov. Sh, Isaqov. N, Hasanov. A, "Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya va sihat salomatlik haqida" Namangan 2005
5. Fakhritdin, Askarov. "Formation of Physical Culture in the High School Students on the Basis of Reflexive Approach". Eurasian Scientific Herald 16 (2023): 20-24.
6. Qambarov S.S., Asqarov F.A., Ummatov N.R. SOCIO-EDUCATIONAL FEATURES OF THE APPLICATION OF INNOVATIVE TERMS IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – C. 789-791.
7. D.J. Sharipova, G.S. Fuzailova, G.A. Shaxmurova, M.T. Toirova, M. Turkmenova, D.Zufarova "Talabalrda sog'lom turmush tarzini shakllantirish" Farg'ona 2010 y
8. Gaybullayev N.R. Ta'lim-tarbiyaning amaliy yo`nalishi. T. O'qituvchi. 1986.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

